

## DIPLOMATIK MATNLAR LINGVISTIKASI VA EVFEMIZMLARNING TARJIMA QILINISHI

Urinbayeva Maftuna Yuldash qizi, *ToshDO‘TAU TNA 4-kurs*

[urinbayevamaftuna454@gmail.com](mailto:urinbayevamaftuna454@gmail.com) +99833 557 68 18

Ilmiy rahbar: PhD Gulnoz Mamarasulova

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada diplomatik matnlarning lingvistik xususiyatlari hamda ularda qo‘llaniladigan evfemizmlarning tarjima jarayonidagi o‘rni va funksional xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada evfemizmlarning turlari, semantik-pragmatik vazifalari va o‘zbek tiliga tarjima qilishda qo‘llaniladigan strategiyalar yoritib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** diplomatik matn, diskurs, evfemizm, pragmatika, semantika, rasmiy nutq, lingvistik xususiyatlar, siyosiy kommunikatsiya

**Annotation:** This article analyzes the linguistic features of diplomatic texts, as well as the role and functional characteristics of euphemisms used within them during the translation process. The article also outlines the type of euphemisms, their semantic-pragmatic functions, and the strategies applied when translating them into Uzbek.

**Keywords:** diplomatic text, discourse, euphemism, pragmatic, semantic, official speech, linguistic features, political communication

**Аннотация:** В данной статье проанализированы лингвистические особенности дипломатических текстов, а также роль и функциональные характеристики эвфемизмов, используемых в процессе их перевода. Кроме того, в статье освещены типы эвфемизмов, их семантико-прагматические функции и стратегии, применяемые при переводе на узбекский язык.

**Ключевые слова:** *дипломатический текст, дискурс, эвфемизм, прагматика, семантика, официальная речь, лингвистические особенности, политическая коммуникация*

Hozirgi kunda diplomatik nutq davlatlar o'rtasida rasmiy munosabatlarni yaxshilash, xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlab turish hamda davlatlararo do'stona aloqalarni yaxshilashda muhim ahamiyatga egadir. Shunga ko'ra diplomatik matnlarning o'ziga xos lingvistik xususiyatlari mavjud bo'lib, rasmiy talablarga doimiy javob berishi lozim.

Diplomatiya termini XX asrning o'rtalarida rus tili orqali o'zbek tiliga kirib keldi. Manbalarda u quyidagicha ta'riflanadi. "Diplomatiya – davlatning tashqi xalqaro siyosatini amalga oshirish, chet mamlakatlar bilan aloqa qilish sohasidagi faoliyati" dir. O'zbek tilining 5 jildlik izohli lug'atida ham ushbu terminning qayd etilgan sharhi aynan keltiriladi. [1, p. 928]. Ozbek tilshunosligida ham aynan shu izohli lugatga asoslanib tadqiqot ishlari olib boriladi.

Diplomatik hujjatar o'z navbatida leksik-uslubiy, sintaktik, grammatik, morfologik, kognitiv-diskursiv va kommunikativ-pragmatik xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar diplomatik matnlarda birdek namoyon bo'ladi. Xususan, bunday matnlarda neytral va rasmiy uslub, bo'yoqdor va har taraflama ikki tomon o'rtasidagi diplomatik munosabatlarni muvozanatda ushlab turish uchun leksik birliklardan foydalaniladi.

Sintaktik tuzilishda esa asosan murakkab qo'shma gaplar, rasmiy konstruksiyalar va maxsus strukturalar asosiy rol o'ynaydi. Misol uchun, "Kelgusidagi hamkorlik masalalarini ko'rib chiqish bo'yicha takliflar imzolandi" Ushbu birlikda gap kim tomonidan bajarilganligi keltirilmagan, aynan mana shu passiv struktura diplomatik neytrallikni ta'minlashda xizmat qilgan. Odatda diplomatik matnlar I yoki III shaxs nomidan so'zlangan bo'ladi va nutqda ham tinglovchiga qarata to'g'ridan to'g'ri murojaat qilinmaydi ya'ni ko'plik yoki birlik shaklidan foydalaniladi.

Grammatik xususiyatlariga ko'ra diplomatik matnlarda ot turkumiga oid so'zlar ko'p qo'llaniladi. Hatto fe'l ishlatilganda, uning otga yaqin shakli – harakat nomidan foydalaniladi. Masalan, qabul qilishingizni so'rayman, qarorning bajarilishi, stipendiya tayinlash, talabalar safiga tiklash kabilar. Fe'llar majhul nisbatda va buyruq – istak mayli shaklida qo'llaniladi; qaror qilindi, ko'rib chiqildi, eshitildi, bajarilsin, tayinlansin, amalga oshirilsin quyidagi kabilar. [2, p. 1].

Shuningdek, har bir matn turi ya'ni rasmiy nutq, ommaviy axborot, ilmiy, badiiy va so'zlashuv uslublarida o'ziga xos pragmatik vositalar mavjud. Masalan, rasmiy axborot ya'ni diplomatik diskursda neytrallik va aniqlik mujassamlashgan bo'ladi. Biz olib borayotgan tadqiqotning asl negizi ham aynan shunda.

Kommunikativ – pragmatik xususiyatlarda asosan, nutqning muloyimligi, diplomatik ehtiyotkorlik va evfemizmlarning oqilona qo'llanilishi har bir bayonotning siyosiy kontekstga moslab tuzilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Diplomatik matnlar, odatda, muzokarani yaxshi tomonga o'zgartirish, ikki tomon manfaatlarini uyg'unlashtirgan holda strategiyalardan foydalanadi. Natijada diplomatik matnning grammatik shakllari va nutq strategiyalari birga jamlanib, rasmiy-siyosiy muloqotni samarali va tushunarli qilib yetkazib berishga xizmat qiladi. Misol uchun, *“Tomonlar ayrim masalalarni kelgusida batafsil muhokama qilish zarurligini qayd etdilar”* mazmunidagi ushbu gapda to'g'ridan - to'g'ri *“Murosaga kelinmadi, kelishilmadi”* deyish o'rniga, ma'noni chiroyli va yumshoq shaklda yetkaziladi.

Diplomatik matnlarda evfemizmlar muhim pragmatik vazifani bajaradi. Ular asosan matnning rasmiy, neytral va konfliktni yumshatish ma'nosida ishlatilinishi hamda davlatlar o'rtasidagi munosabatlarga zarar yetkazmaslik uchun qo'llaniladi.

Evfemizmlar ekspressiv rangdorlik bilan bog'liq bo'lgan lug'aviy birikmalardandir. Ta'kidlaganimizdek, aytilmoqchi bo'lgan fikrni yumshoq va odobli qilib ifodalash evfemizm sanaladi. Ya'ni evfemizmlarda qo'pol, beadab, taqiq so'z yoki ibora madaniy shaklda pardali qilib aytiladiki, bu hol, bir tomondan, nutq madaniyati bilan bevosita bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, tilning badiiy tasvir

vositalari bilan ham aloqadordir [3, p. 232]. Misol qilib, ingliz tilidagi ushbu gapda, “*a decrease in cooperation was observe*” tarjimasida “*hamkorlik keskin kamaydi*” deb tarjima qilish mumkin, ammo agar bu bayonot diplomatik hujjatda ishlatilgan bo‘lsa, “*hamkorlik sur’atlarida keskin pasayish kuzatildi*” kabi shaklda berilishi diplomatik ohangni to‘liq va aniq ifodalaydi.

Shunday qilib, diplomatik matnlar tarjimasida birinchi bo‘lib lingvistik jihatlar, ma’no va kommunikativ - pragmatik ma’no – matnning diplomatik maqsadini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Evfemizmlardan foydalanish ham asl matnda, ham uning tarjimasida diplomatik diskursning rasmiyligi va muvozanatini saqlashga xizmat qiladi va diplomatik muloqotning samaradorligini oshiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sobirova Sh. Diplomatik nutqning til xususiyatlari. – “Science and Education” Scientific journal, 2023 – B. 928.
2. Mirzamatova Z. O‘zbek va ingliz diplomatik matnlarining uslubiy o‘rganilishi. – “Eurasian Journal of Technology and Innovation” jurnali maqolasi, 2024 – B.1.
3. Gulamova D. Nutq madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda evfemizmlarning o‘rni. - “Modern science and research” International scientific journal, 2023 - B. 232
4. Cambridge International Dictionary of English CIDE (2001).